



## XII. DEMOGRAFIK HOLAT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yilning 1 yanvar holatiga viloyatning doimiy aholisining soni 1 475,6 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 32,2 ming kishiga yoki 2,2 foizga ko'paydi. Shundan, 692,3 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 46,9 %) va 783,3 ming kishi – qishloq joylarida (53,1 %) istiqomat qiladi.



### Jizzax viloyatining hududlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2023 yilning 1 yanvar holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foizda			Doimiy aholi sonining viloyatda ulushi, foizda		
	jamii	shu jumladan:	jamii	shu jumladan:	jamii	shu jumladan:	jamii	shu jumladan:	jamii
	shahar	qishloq	shahar	qishloq	shahar	qishloq	shahar	qishloq	shahar
Jizzax viloyati	1 475,6	692,3	783,3	102,2	102,3	102,2	100,0	100,0	100,0

shahar:


Jizzax	191,8	191,8	102,6	102,6	13,0	27,7
--------	-------	-------	-------	-------	------	------

tumanlar:

Arnasoy	48,1	16,5	31,6	101,7	101,2	101,9	3,2	2,4	4,0
Baxmal	166,6	45,4	121,2	102,1	102,7	101,8	11,3	6,6	15,5
G'allaorol	182,8	63,8	119,0	102,1	101,8	102,2	12,4	9,2	15,2
Sharof Rashidov	236,8	94,2	142,6	102,7	102,7	102,7	16,0	13,6	18,2
Do'stlik	68,8	29,1	39,7	101,7	102,0	101,5	4,6	4,2	5,1
Zomin	175,2	83,2	92,0	102,3	102,0	102,0	11,9	12,0	11,7
Zarbdor	92,6	51,2	41,4	102,4	102,2	102,7	6,3	7,4	5,3
Zafarobod	52,7	24,0	28,7	102,1	102,1	102,1	3,6	3,5	3,6
Mirzacho'l	54,5	30,5	24,0	101,9	102,0	101,7	3,7	4,4	3,1
Paxtakor	79,3	38,3	41,0	102,2	101,6	102,8	5,4	5,5	5,2
Forish	96,9	18,0	78,9	101,7	101,7	102,8	6,6	2,6	10,1
Yangiobod	29,5	6,3	23,2	101,7	101,4	101,8	2,0	0,9	3,0



Viloyat doimiy aholisi soni tarkibida hududlar ulushi, % da  
(2023 yil 1 yanvar holatiga)




Yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha aholining  
tabiiy harakati koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Kishi soni		1000 aholiga nisbatan	
	2021 yil	2022 yil	2021 yil	2022 yil
Tug'ilganlar	41 313	40 729	29,0	27,9
Vafot etganlar	5 930	6 784	4,2	4,6
<i>shu jumladan:</i>				
bir yoshgacha bolalar	366	317	9,1	7,7
Nikohlar, mingta	13 318	12 735	9,3	8,7
Ajralishlar, mingta	1 283	1 728	0,9	1,2

**Tug'ilish.** 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni 40 729 kishini tashkil etdi va 2021 yilning shu davriga (41 313 kishi) nisbatan minus 584 kishiga kamaydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 27,9 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish koeffitsiyentining sezilarli ko'payishi Jizzax shaharda (30,0 promilledan 30,9 promillegacha), Sharof Rashidov (27,3 promilledan 28,3 promillegacha), Mirzacho'l (21,6 promilledan 22,0 promillegacha) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti  
2022 yilning yanvar-dekabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)**




**O‘lim.** 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida o‘lganlar soni 6 784 kishini tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (5 930 kishi) nisbatan 854 kishiga ko‘paydi, mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil qildi (2021 yil yanvar- dekabrdagi 4,2 promille bo‘lgan).

O‘lim koeffitsiyentining sezilarli o‘sishi Baxmal (4,6 dan 4,9 promillegacha), G‘allaorol (4,7 dan 5,3 promillegacha), Zomin (4,6 dan 5,3 promillegacha) hissasiga to‘g‘ri keladi.

O‘lim darajasining eng past ko‘rsatkichi Sharof Rashidov (3,6 promille), Forish (4,1 promille) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.


**Hududlar kesimida o‘lganlar soni va koeffitsiyenti  
2022 yilning yanvar-dekabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)**



O‘lganlar umumiylar sonidan 36,6 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,3 foizi – o‘sma kasalliklaridan, 10,7 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan, 4,9 foizi – ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 26,0 foizi – nafas olish organlari kasalliklaridan, 1,6 foizi – infeksion va parazitar kasalliklaridan, 11,9 foizi – boshqa kasaliklardan vafot etgan.




### Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida 317 nafar bir yoshgacha bolalar o‘limi qayd etilgan. Go‘daklar o‘limi koeffitsiyenti 7,7 promilleni (2021 yil yanvar-dekabrdagi 9,1 promille bo‘lgan) tashkil qildi.

**Nikohlar va ajralishlar.** 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida 12 735 ta nikohlar va 1 728 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,7 ni (2021 yilning yanvar-dekabrda 9,3 bo‘lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,2 ni (2021 yilning yanvar- dekabrda 0,9 bo‘lgan) tashkil etgan.

### 2022 yilning yanvar-dekabr oyida viloyat bo‘yicha tuzilgan nikoh koeffitsiyenti



Tuzilgan nikohlar soni 2021 yilning mos davriga nisbatan ayrim hududlarda sezilarli ko‘payish kuzatilgan. Bunda eng yuqori ko‘payish sur’ati Baxmal (105,3 %) tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.



**Hududlarda yanvar-dekabr oylarida tuzilgan nikohlar  
va nikohdan ajralishlar soni**

(kishida)

	<b>Tuzilgan nikohlar</b>		<b>Nikohdan ajralishlar</b>	
	<b>2021 yil</b>	<b>2022 yil</b>	<b>2021 yil</b>	<b>2022 yil</b>

<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1 3318</b>	<b>12 735</b>	<b>1 283</b>	<b>1 728</b>
------------------------	---------------	---------------	--------------	--------------


*shahar:*

<b>Jizzax</b>	1 727	1 808	219	303
---------------	-------	-------	-----	-----

*tumanlar:*

Arnasoy	391	307	42	52
Baxmal	1 537	1 619	122	156
G‘allaorol	1 737	1 624	173	231
Sharof Rashidov	2 224	1 989	174	248
Do‘stlik	507	483	51	68
Zomin	1 696	1 704	126	196
Zarbdor	839	820	83	95
Zafarobod	428	457	56	64
Mirzacho‘l	394	375	45	74
Paxtakor	763	626	87	128
Forish	825	700	76	84
Yangiobod	250	223	29	29

**Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti  
(2022 yil yanvar-dekabr)**



Ajrimlar sonini 2021 yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda, yuqori o'sish sur'ati Jizzax shahrida (138,3 %) Sharof Rashidov (142,5 %) Zomin (155,5 %) Mirzcho'l (164,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi  
soni va koeffitsiyenti

(*kishi*)

	<i>Kishi soni</i>		<i>1 000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>

<b>Jizzax viloyati</b>	<b>3 5383</b>	<b>3 3945</b>	<b>24,8</b>	<b>23,3</b>
------------------------	---------------	---------------	-------------	-------------

*shahar:*

<b>Jizzax</b>	4 759	4 986	25,8	26,3
---------------	-------	-------	------	------

*tumanlar:*

Arnasoy	1 003	957	21,4	20,0
Baxmal	4 594	4 029	28,5	24,4
G'allaorol	4 657	4 190	26,3	23,2
Sharof Rashidov	5 298	5 761	23,3	24,7
Do'stlik	1 444	1 385	21,5	20,2
Zomin	4 613	4 058	27,3	23,4
Zarbdor	2 379	2 216	26,6	24,2
Zafarobod	1 197	1 114	23,5	21,4
Mirzacho'l	961	970	18,1	18,0
Paxtakor	1 949	1 835	25,4	23,4
Forish	1 989	1 939	21,0	20,1
Yangiobod	540	505	18,7	17,3

**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6 631 kishi, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 8 417 kishi tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus 1 786 kishi tashkil etgan, 2021 yilning mos davrida minus 2 491 kishi bo'lgan.



### Yanvar-dekabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

	(kishi)					
	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosи	
	2021 yil	2022 yil	2021 yil	2022 yil	2021 yil	2022 yil
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>8 993</b>	<b>6 631</b>	<b>11 484</b>	<b>8 417</b>	<b>-2 491</b>	<b>-1 786</b>
<i>shahar:</i>						
Jizzax	1 947	1 442	2 087	1 469	-140	-27
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	258	171	483	368	-225	-197
Baxmal	433	302	1 192	879	-759	-577
G'allaorol	492	408	1 093	814	-601	-406
Sharof Rashidov	2 265	1 453	1 452	1 011	813	442
Do'stlik	474	271	727	534	-253	-263
Zomin	681	501	892	658	-211	-157
Zarbdor	572	435	717	456	-145	-21
Zafarobod	402	288	508	331	-106	-43
Mirzacho'l	425	464	515	470	-90	-6
Paxtakor	608	532	796	592	-188	-60
Forish	291	219	772	608	-481	-389
Yangiobod	145	145	250	227	-105	-82

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Baxmal (minus 577 kishi), G'allaorol (minus 406 kishi), Do'stlik (minus 263 kishi) va Forish (minus 389 kishi) tumanlarida qayd etildi. Migratsiyaning ijobiy saldosи Sharof Rashidov tumani (442 kishi) kuzatildi.